O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI TA’LIM VA ILM-FAN VAZIRLIGI

ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI



“O‘ZBEK TILINING GLOBAL MAQOMI VA NUFUZINI OSHIRISH ISTIQBOLLARI”

MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA MATERIALLARI







2026-yil
16-oktabr

O‘ZBEK TILIDA INSON XARAKTERINI IFODALOVCHI FRAZEMALARNING SEMANTIK MIKROMAYDONLARI

SEMANTIC MICROFIELDS OF PHRASEMES EXPRESSING HUMAN CHARACTER IN THE UZBEK LANGUAGE

DOI: 10.52773/tsuull.conf.2026.10.16/DXRM1527

Amrullayeva Mohinur Jo‘rabek qizi
Alisher Navoiy nomidagi o‘zbek tili va adabiyoti
O‘zbek tilshunosligi tayanch doktoranti
e-mail:mohinuramrullayeva045@gmail.com

Annotation. *The article examines phrasemes that express human character in the Uzbek language from the standpoint of the semantic field theory. The phraseosemantic field “human character” is treated as a hierarchically organised system consisting of a core, a near periphery and a far periphery. Seven semantic microfields are distinguished within it: generosity, contentment and greed; kindness and cruelty; pride and conceit; shame and shamelessness; courage, cowardice and resoluteness; speech behaviour; moral purity and moral defect. It is shown that each microfield is organised around an opposition of positive and negative evaluation, that somatic components such as ko‘ngil (heart, mind), yurak, qo‘l, ko‘z, yuz and til play a leading role in their formation, and that the imagery of the phrasemes rests on conceptual metaphors based on size, colour, hardness, taste and orientation. The results may be used in compiling a thematic dictionary of phrasemes and in teaching Uzbek phraseology.*

Keywords: *phraseme, human character, semantic microfield, phraseosemantic field, somatic component, conceptual metaphor, axiological polarity.*

Tilshunoslikda antropotsentrik paradigmaning mustahkamlanishi bilan inson omilini va uning xarakteriga xos xususiyatlarini ifodalovchi til birliklari tobora keng tadqiq etilmoqda. Shaxsning xarakteri, xulq-atvori va axloqiy sifatlarini nomlash hamda baholash har bir tilda katta leksik-frazeologik qatlamni tashkil etadi. O‘zbek tilida bu vazifani, ayniqsa, frazemalar bajaradi: “qo‘li ochiq”, “ko‘ngli qattiq”, “ko‘ngli toza”, “Aflotun miya”,“ichi qora”,”ammamning buzog‘i” kabi birliklar insonning xislatini obrazli ifodalabgina qolmay, unga nisbatan so‘zlovchining shaxsiy bahosini ham bildiradi.

O‘zbek frazeologiyasida frazemalarning grammatik, semantik, uslubiy va lingvomadaniy jihatlari ko‘plab tadqiqotlarda batafsil yoritilgan.Sh.Rahmatullayev,B.Yo‘ldoshev,A.Mamatov,I Qo‘chqortoyev kabi olimlar ishlarini misol keltirish mumkin. So‘nggi yillarda inson xulq-atvori va xarakterini ifodalovchi frazeologizmlar kognitiv va lingvokulturologik yondashuvlar asosida tasniflanmoqda. Shu bilan birga, bu birliklarning semantik maydondagi o‘rni, ichki guruhlanishi, ya’ni mikromaydonlari va ular o‘rtasidagi munosabatlarni tizimli tavsiflashga ehtiyoj saqlanib qolmoqda.

Ushbu maqolamizning maqsadi o‘zbek tilida inson xarakterini ifodalovchi ayrim frazemalarning semantik mikromaydonlarini aniqlash va ularning tuzilishini ko‘rsatishdan iborat. Shu maqsadga muvofiq quyidagi vazifalar belgilandi: 1) frazeosemantik maydon va mikromaydon tushunchalarini aniqlashtirish; 2) xarakter semasi asosida frazemalarning mikromaydonlarini ajratish; 3) har bir mikromaydonni baholash qutbi va tayanch komponentlari jihatidan tavsiflash; 4) mikromaydonlardagi obrazli asoslarni kognitiv nuqtai nazardan izohlash; 5) maydonning yadro va periferiya qatlamlarini ajratish mezonlarini belgilash.

Semantik maydon deganda umumiy semantik belgi (integral sema) asosida birlashgan va o‘zaro munosabatda turuvchi til birliklari tizimi tushuniladi. Frazeologik birliklar misolida bu tushuncha frazeosemantik maydon sifatida qo‘llanadi: unda frazemalar yadro, yaqin va uzoq periferiya qatlamlari bo‘yicha ierarxik joylashadi [Qalandarov Sh, 2025: 28] . Mikromaydon esa maydon ichidagi yanada tor, umumiyroq semaga emas, balki aniqroq differensial semaga tayangan guruhdir. Masalan, “xarakter” maydoni doirasida “saxiylik” yoki “uyatchanlik” semasi atrofida birlashgan frazemalar alohida mikromaydonni tashkil etadi. [Qalandarov Sh, 2025: 34]

Frazema ma’nosi faqat denotativ komponentdan iborat emas: unda konnotativ, ekspressiv va baholovchi komponentlar ham muhim o‘rin tutadi [Телия, 1996: 45; Арутюнова, 1988: 56]. Baholash ma’nosi inson xarakterini ifodalovchi birliklar uchun alohida ahamiyatga ega, chunki ularning aksariyati ijobiy yoki salbiy qutbga ega bo‘ladi. Frazemalarning ma’no ko‘chishi asosida metaforik va metonimik modellar yotishi Dj. Lakoff va M. Jonson, Z. Kövecses tomonidan asoslangan konseptual metafora nazariyasi bilan izohlanadi: ular metaforalarni ontologik, oriyentatsion va struktur turlarga ajratadi [Lakoff, Johnson, 1980: 44; Kövecses, 2002: 38].

Maqolada “xarakter” shaxsning nisbatan barqaror ruhiy-axloqiy xususiyatlari majmui sifatida, “ruhiy holat” esa vaqtinchalik kechinma sifatida farqlanadi. Frazemalar tasnifida V. Vinogradov tomonidan ajratilgan qotishma, butunlik va birikma turlari hisobga olinadi [Виноградов, 1947: 32], biroq tadqiqot markazida frazemalarning tuzilish(struktur) turi emas, semantik (ma’no) jihatdan guruhlanishi turadi.

Inson xarakterini ifodalovchi frazemalarning mikromaydonlari

Xarakter semasi asosida frazemalarni guruhlash natijasida taxminiy yettita mikromaydon ajratildi (1-jadval).

1-jadval. Inson xarakterini ifodalovchi frazemalarning semantik mikromaydonlari

Mikromaydon	Ijobiy qutb	Salbiy qutb	Tayanch komponent
1. Saxiylik, qanoat va ochko‘zlik	qo‘li ochiq; ko‘zi to‘q	ko‘zi och	qo‘l, ko‘z
2. Mehr va shafqatsizlik	bag‘ri keng; ko‘ngli yumshoq	bag‘ri tosh	bag‘ir, ko‘ngil
3. Mag‘rurlik va manmanlik	—	dimog‘i baland; havosi baland; o‘zini katta olmoq	dimog‘, havo
4. Uyat va beuyatlik	yuzi issiq	yuzi qalin	yuz
5. Jasorat, qo‘rqoqlik va qat’iyat	Yuragi katta (jasorat)	yuragi taka-puka; boshi qattiq	yurak, bosh
6. Nutq xulqi	tili shirin	tili uzun; tili achchiq; og‘zi bo‘sh	til, og‘iz
7. Ma’naviy poklik va nuqson	ko‘ngli toza; ko‘ngli oq; oltin qalbli	ichi qora; ichi tor	ko‘ngil, ich, qalb

Izoh: “—” belgisi mazkur maqolada keltirilgan misollar doirasida qutb ifodalanmaganini bildiradi.

1.1. Saxiylik, qanoat va ochko‘zlik mikromaydoni.

Bu mikromaydonning markazida moddiy boyliklarga munosabat semasi turadi. “Qo‘li ochiq” frazemasi saxiy, berishdan qaytmaydigan kishinining xarakter xususiyatini tasvirlaydi. “Ko‘zi to‘q” qanoatli, tamagir bo‘lmagan, “ko‘zi och” esa ochko‘z, nafsi to‘ymas insonni ifodalaydi. Ko‘rinib turibdiki, qutblar bir komponentli (ko‘z) frazemalar antonimiyasi orqali ham shakllanadi: to‘q – och oppozitsiyasi to‘yinganlik tajribasidan xarakter xususiyatiga ko‘chgan.

1.2. Mehr va shafqatsizlik mikromaydoni.

Mehr-shafqat xislati asosan ko‘ngil va bag‘ir komponentlari orqali ifodalanadi. “Bag‘ri keng” kechirimli, mehribon, “ko‘ngli yumshoq” rahmdil kishini, “bag‘ri tosh” esa shafqatsiz, rahmsiz odamni bildiradi. Bu yerda qattiqlik – yumshoqlik oppozitsiyasi (tosh – yumshoq) va hajm oppozitsiyasi (keng) birgalikda ishlaydi.

1.3. Mag‘rurlik va manmanlik mikromaydoni.

Bu mikromaydonda salbiy baho ustun: “dimog‘i baland”, “havosi baland”, “o‘zini katta olmoq” frazemalari o‘zini boshqalardan ustun qo‘yuvchi kishini tavsiflaydi. Birinchi ikki frazemada yuqori yo‘nalish (baland) ustunlik ma’nosini beradi, uchinchisida esa somatik komponent yo‘q, o‘lchov metaforasi (katta) ishtirok etadi.

1.4. Uyat va beuyatlik mikromaydoni.

“Yuzi issiq” frazemasi uyatchan, birovning ko‘nglini og‘ritishdan tortinadigan, “yuzi qalin” esa uyatsiz, andishasiz kishini bildiradi. Yuz uyat hissini ifodalovchi a’zo sifatida qabul qilinadi: uyat tuyg‘usi bilan yuzning qizishi bog‘liq, qalinlik esa “sezgirlik himoya qatlami bilan to‘silgan” degan talqinga imkon beradi.

1.5. Jasorat, qo‘rqoqlik va qat’iyat mikromaydoni.

Bu mikromaydon chegaraviy xususiyatga ega, chunki unda holat va xarakter ma’nolari o‘zaro yaqinlashadi. “Yuragi taka-puka” frazemasi dastlab vaqtinchalik qo‘rquv holatini bildiradi, ammo kontekstda doimiy qo‘rqoqlik sifatida ham aktuallashishi mumkin. “Boshi qattiq” frazemasi esa qaysar, aytganidan qaytmaydigan kishini tavsiflaydi va kontekstga qarab salbiy yoki qat’iyatlilik ma’nosida betaraf baho olishi mumkin. Bunday birliklar yaqin periferiyaga tegishli bo‘ladi.

1.6. Nutq xulqi mikromaydoni.

Insonning gapirish tarzi xarakterning muhim ko‘rsatkichi sifatida qaraladi. “Tili shirin” yoqimli, mulohazali tarzda so‘zlovchini, “tili achchiq” dilni

og‘ritadigan gapga moyil kishini, “tili uzun” ko‘p va bemalol gapiradigan odamni, “og‘zi bo‘sh” esa sir saqlay olmaydigan kishini bildiradi. Bu yerda ta’m metaforasi (shirin – achchiq) va a’zo metonimiyasi (til, og‘iz) birgalikda nutq xulqi mikromaydonini tasvirlab beradi.

1.7. Ma’naviy poklik va ma’naviy nuqson mikromaydoni.

Bu mikromaydon eng keng bo‘lib, ko‘ngil, ich va qalb komponentlari atrofida shakllanadi. “Ko‘ngli toza”, “ko‘ngli oq” va “oltin qalbli” frazemalari pok, samimiy kishini, “ichi qora” va “ichi tor” esa yomon niyatli yoki hasadgo‘y,sabrsiz odamni ifodalaydi. Mikromaydonda rang simvolikasi (oq – qora), tozalik tushunchasi, qimmatbaho metall obrazi (oltin) va idish metaforasi (ichi tor) ishtirok etadi.

Tahlil qilingan frazemalar bir nechta konseptual metaforaga tayanadi. Birinchidan, ko‘ngil va ichni idish sifatida tasavvur qilish (ontologik metafora) “ko‘ngli keng”, “ichi tor”, “ichi qora” kabi birliklarda hajm va rang orqali xarakterni baholashga imkon beradi [Lakoff, Johnson, 1980: 48]. Ikkinchidan, xarakter – material metaforasida qattiqlik darajasi (tosh – yumshoq) mehr-shafqat darajasini ifodalaydi. Uchinchidan, oriyentatsion metafora asosida yuqori – ustunlik modeli “dimog‘i baland”, “havosi baland” frazemalarida namoyon bo‘ladi. To‘rtinchidan, xarakter – ta’m modeli (shirin – achchiq) nutq xulqini baholashda ishlaydi. Beshinchidan, “qo‘li ochiq” frazemasida ochiqlik – saxiylik modeli kuzatiladi: ochiq qo‘l beruvchi, yopiq qo‘l tutib qolishga urinuvchi inson timsoliga mos keladi.

Somatik komponentlar bu metaforalarning tashuvchisi sifatida ishtirok etadi: ko‘ngil va yurak ma’naviy-axloqiy sifatlar, qo‘l va ko‘z moddiy munosabat, yuz uyat, til va og‘iz nutq xulqi bilan bog‘lanadi. Bu bog‘lanish a’zolarning o‘zbek madaniyatidagi funksional-simvolik qadriyatini ham aks ettiradi [Sabirova N, 2025:37]. Shu sababli har bir mikromaydonni tayanch komponent asosida tasniflash, ya’ni “ko‘ngil”, “yuz”, “til” “bosh” kabi tana a’zo komponentli guruhlarni ham ko‘rsatish, kelajakdagi lug‘at tuzishda foydali bo‘ladi.

Xarakter maydonini yadro va periferiya bo‘yicha tuzishda quyidagi mezonlarni taklif qilamiz: 1) frazema ma’nosining xarakter semasiga bevosita ishora qilishi; 2) qutbning bir ma’noligi; 3) lug‘atlarda mustahkam qayd etilishi; 4) kontekst (matn holatiga)ga bog‘liqlik darajasi. Shu mezonlarga ko‘ra yadroni xarakter ma’nosi barqaror bo‘lgan birliklar (“qo‘li ochiq”, “ko‘ngli toza”, “bag‘ri tosh”) tashkil etadi. Yaqin periferiyaga kontekstga qarab holat yoki xarakter ma’nosi aktuallashadigan birliklar (“yuragi taka-puka”, “boshi qattiq”) kiradi.

Uzoq periferiyada esa xarakterni ikkilamchi, konnotativ tarzda ifodalovchi birliklar joylashadi, ularda xarakter sema asosiy emas, balki qo‘shimcha ma’no sifatida namoyon bo‘ladi.

Bu tuzilma mikromaydonlar o‘rtasida ham o‘tish zonalari mavjudligini ko‘rsatadi. Masalan, “ko‘zi to‘q” frazemasi saxiylik – ochko‘zlik mikromaydoni bilan bir qatorda ma’naviy poklik bu iborada ehtiyoji to‘yingan mikromaydoniga ham yaqinlashadi, “tili achchiq” esa nutq xulqi bilan birga salbiy axloqiy sifatni ham bildiradi. Bunday kesishuvlar semantik maydonning yopiq emas, balki dinamik (harakatdagi o‘zgaruvchan) tizim ekanligini tasdiqlaydi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, o‘zbek tilida inson xarakterini ifodalovchi frazemalar yagona frazeosemantik maydonni tashkil etib, uni yetti mikromaydonga ajratish mumkin. Mikromaydonlarning aksariyati ijobiy va salbiy qutblarga ega bo‘lib, ayrim guruhlarda bir qutb ustun turadi. Ularning shakllanishida ko‘ngil, qo‘l, ko‘z, yuz, til, bosh kabi somatik komponentlar yetakchi o‘rin tutadi, obrazli asosni esa idish, rang, qattiqlik, ta’m, yo‘nalish metaforalari tashkil etadi. Maydon yadro, yaqin va uzoq periferiya qatlamlariga ega bo‘lib, mikromaydonlar o‘rtasida o‘tish zonalari mavjud. Olingan natijalar mavzuviy frazeologik lug‘at tuzishda, frazeologiyani o‘qitishda hamda qiyosiy tadqiqotlarda qo‘llanishi mumkin.

ADABIYOTLAR

1. Qalandarov Sh.Sh. O‘zbek tilida frazeologik birliklarning semantik transformatsiyasi va milliy-madaniy xususiyatlari. – 2025.

2. Ingliz va o‘zbek tillarida frazeosemantik maydonning kognitiv va lingvokulturologik talqini. – Zenodo, 2026. URL: https://zenodo.org/records/21021986

2. Kövecses Z. Metaphor: A Practical Introduction. – Oxford: Oxford University Press, 2002.

3. Lakoff G., Johnson M. Metaphors We Live By. – Chicago: University of Chicago Press, 1980.

4. O‘zbek tilida inson xulq-atvorini ifodalovchi frazeologizmlar tasnifi. – Zenodo, 2026. URL: https://zenodo.org/records/21795888

5. Rahmatullayev Sh. O‘zbek tilining izohli frazeologik lug‘ati. – Toshkent: O‘qituvchi, 1978.

6. Shaxs xarakterini ifodalovchi frazeologik birliklarning frazeosemantik maydonlarida ishlatiladigan metaforik iboralarning lingvo-kognitiv tahlili //

Eurasian Journal of Academic Research. – 2023. – 3(3). – B. 123–125. DOI: 10.5281/zenodo.7783688

7. Арутюнова Н.Д. Типы языковых значений: Оценка. Событие. Факт. – М.: Наука, 1988.

8. Виноградов В.В. Об основных типах фразеологических единиц в русском языке // Шахматов А.А. 1864–1920: сборник статей и материалов. – М.–Л.: Изд-во АН СССР, 1947. – С. 339–364.

9. Телия В.Н. Русская фразеология: семантический, прагматический и лингвокультурологический аспекты. – М.: Школа «Языки русской культуры», 1996.

10. Sabirova N.K. Frazeologik birliklar orqali hissiyot ifodalanishining lingvomadaniy xususiyatlari. – 2025.

MUNDARIJA

KIRISH SO‘ZI		
Sirojiddinov Sh.S.	O‘zbek tilining xalqaro nufuzini oshirish zarurati	**6**
I. O‘ZBEK TILINING JAHON TILLARI TIZIMIDAGI O‘RNI VA RIVOJLANISH TENDENSIYALARI		
Xolmanova Z.	O‘zbek tilining jahon tillari tizimidagi mavqeyini belgilashda lingvodidaktikaning o‘rni	**9**
Abdushukurov B.	Alisher Navoiy asarlaridagi qadimgi turkiy fe’llar semantikasi	**16**
Xudoyberdiyev J.	Mahmud Koshg‘ariy – singarmonizmning birinchi nazariyotchisi va ovrupolik olimlarning singarmonizm haqidagi xato qarashlari	**30**
Abdurahmanova M.	Alisher Navoiy merosi psixolingvistik talqinda	**45**
Xolmurodova M.	“Nasoyim ul-muhabbat” asaridagi tabobatga doir ayrim arabcha so‘zlar	**51**
O‘razova I.	Ot frazemalarning grammatik funksiyasi (Alisher Navoiy “Xamsa”sidagi frazemalar misolida)	**56**
Maxkamova D.	O‘zbek tili axborot-kommunikatsiya texnologiyalari	**60**

	terminologiyasi taraqqiyoti va tadqiqi	
Oripova M.	Sinestezik metaforalarda sezgilar interperatsiyasi	**66**
Muratova N.	Tilak va tabrik nutqiy aktlarida kommunikativ taktikaning tanlanish xususiyatlari	**72**
Abdullayeva G.	Folklor diskursida o‘xshatishlarning semantik-struktur va kognitiv tahlili	**78**
Xayrullayeva R.	Kichraytirish-erkalash shakllarining pragmatik ifodalanishi	**86**
Jumaniyozova Ch.	Sifat so‘z turkumida obyektiv va subyektiv belgilarning ifodalanishi	**90**
Abduvaliyeva K.	“Shajarayi turk” asaridagi ba’zi urug‘ nomlarining etnotoponim sifatidagi tahlili	**95**
Mullaboyeva Sh.	O‘zbek tilida o‘xshatishlar asosida estetik bahoning ifodalanishi	**107**
Mamadoliyeva M.	Graduallik kategoriyasining lingvistik tabiati va uning turdosh hodisalar bilan munosabati (Xayriddin Sultonov va Iqbol Mirzo asarlari misolida)	**115**
Mamarasulova M.	O‘zbek tili fonosemantik tahlilining fonologik asoslari	**130**
Siddiqova N.	O‘zbek xalq maqollaridagi eskirgan leksika: tarkibi,	**132**

	variantlanishi va lingvopoetik vazifalari	
Yusupova A.	Konseptlarning metaforik ifodalanishi va tahlil shakllari	**144**
O‘ralova N.	O‘zbek tilshunosligida parsellyatsiya hodisasi, uning sintaktik tavsifi va ega-kesim munosabatidagi o‘rni	**150**
Maxmudova M.	Kelishik kategoriyasining o‘rganilish tarixiga doir ayrim mulohazalar	**158**
Nurmatova S.	O‘zbek tilida rang ifodalovchi birliklarning lingvokognitiv strukturasi va konseptualizatsiya masalalari	**168**
Keldiyorova Z.	O‘zbek tilidagi shikoyat matnlarida nutqiy aktlarning ifodalanishi	**174**
Aliqulova Z.	Toponimlarning axborotni saqlash va uzatish xususiyatlari	**178**
Jurayeva Sh.	Hurmat kategoriyasining lisoniy birliklar bilan ifodalanishi	**183**
Karimova U.	Kultegin bitiktoshidagi xarakter-xususiyat bildiruvchi sifatlar tahlili	**188**
II. O‘ZBEK TILINI XALQARO MAYDONDA TARG‘IB QILISH STRATEGIYALARI		
Shamsiyeva M.	Peyzaj matnlari orqali turizmni rivojlantirish istiqbollari	**194**

Jo‘rayeva M.	Matnni tushunishda asar sarlavhasining ahamiyati	**201**
III. GLOBALLASHUV SHAROITIDA MILLIY TIL VA MADANIYATNI SAQLASH MASALALARI		
Ashirboyev S.	Adstrat sharoitidagi turkiy shevalarning o‘zaro ta’siri masalasi	**205**
Farhad Rahimi	Yakşı/ ĥoş, yap/ lap, ķop/ köp/ ĥob, appaķ/ pāk kelimeleri üzerine On the words yakşı/ ĥoş, yap/ lap, ķop/ köp/ ĥob, appaķ/ pāk	**210**
Xakimova M.	O‘zbek tilidagi metaforik konseptuallashtirishning milliy xususiyatlari	**232**
Abbozov O.	So‘x toponimlarining lingvomadaniy xususiyatlari	**238**
Komilova G.	O‘zbek tilida qadriyatlar tipologiyasining lingvistik verbalizatsiyasi	**245**
Xomidova M.	Zamonaviy o‘zbek badiiy matnlarida ertak elementlarining intertekstual xususiyatlari	**253**
Həsənzadə Səmra	Qrammatik metaforun türk dillərində reallaşması (özbək dilinin materiallari əsasinda)	**261**
Davronova Z.	Antroponimik freymlarda registrdan og‘ish fenomini (Cho‘lponning “Kecha va kunduz” romani misolida)	**272**

Tursinbayeva Sh.	Badiiy matnda onomastik birliklarning lingvomadaniy imkoniyatlari	**276**
Bekmuradova I.	O‘zbek tilidagi ijobiy fe’l-atvor leksemalarining semantik tasnifi	**283**
Imomova I.	Fitratning dramatik asarlarida maqollarning qo‘llanilishi va funksional-semantik xususiyatlari	**291**
Turgunboeva D.	Globallashuv sharoitida o‘zbek va ingliz lingvomadaniyatida miqdoriy me’yor	**297**
Amrullayeva M.	O‘zbek tilida inson xarakterini ifodalovchi frazemalarning semantik mikromaydonlari	**305**
Abdug‘afurova A.	Lingvomadaniy kodlarning poetik faollashuvi: Faxriyor va Ulug‘bek Hamdam she’riyati qiyosida	**312**
Muzaffarova Z.	Badiiy matnda qo‘llangan metaftonimik birliklarning kognitiv xususiyatlari	**322**
Jumayeva M.	Son komponentli lug‘aviy birliklarning lingvokulturologik tahlili	**327**
Xolmo‘minova H.	Frazemalarning lingvomadaniy tahlili	**333**
IV. O‘ZBEK TILINI O‘QITISHNING ZAMONAVIY METODLARI VA XORIJIY TAJRIBA		

Xusanova N.	Raqamli ta’lim muhitida o‘qish savodxonligi transformatsiyasi vositasida boshlang‘ich o‘quvchilarning kreativligini shakllantirish	**337**
Mamirova X.	Bolalarda ko‘p ma’noli so‘zlarni o‘zlashtirishning psixolingvistik mexanizmlari va til ta’limiga ta’siri	**344**
Arolova N.	Maktabgacha yoshdagi o‘zbek bolalari nutqida sintaktik tejamkorlik	**351**
Mirnosirova D.	Nutqiy ijod haqidagi nazariy qarashlar talqini	**356**
Nurboboyeva R.	Erta yoshdagi bolalar ta’limida adabiyotning tutgan o‘rni	**363**
Keldiboyeva M.	O‘zbek tili omonimlarini o‘zlashtirishda kontekst va assotsiatsiyaning psixolingvistik roli	**369**
V. TARJIMA VA LINGVOMADANIY ALOQALAR: XALQARO HAMKORLIKNING MUHIM OMILI SIFATIDA		
Mustafa Said Arslan	Türkiye türkçesi ve özbek türkçesi arasindaki yakinliğin öğretimdeki yansimalari: özbek türkçesi öğretiminde karşilaşilan sorunlar ve öneriler	**378**
Kalanova D.	O‘.Hoshimov “Dunyoning ishlari” asarining koreyscha tarjimasida milliy-madaniy realiyalarning berilishi	**389**

Muhammadiyeva D.	Ko‘p tilli parallel korpusning tarjima birliklarini qiyosiy o‘rganishdagi imkoniyatlari	**400**
Abbasova Ş.	Özbek Yazı Dili ve Azerbaycan Türkçesi'nin Ağızlarında Akrabalık Terimleri	**411**
Qarshiyev K.	Badiiy tarjimaning adabiy-estetik tafakkur evolyutsiyasiga ta’siri (Jamol Kamolning tarjimonlik faoliyati misolida)	**418**
Rahimova Z.	Parallel korpuslarning tarjimashunoslik va qiyosiy tilshunoslikdagi ilmiy ahamiyati	**428**
Bozorova S.	Rus tilidagi ayrim gippologik birliklar tadqiqiga doir	**433**
Axmedova N.	O‘zbek va ingliz tillarida ruhiy holat birliklarining semantik farqlari va kontekstual tarjimasi	**442**
Davlatova R.	Sun’iy intellekt asrida inson nutqi, tilni idrok etish va psixolingvistik jarayonlar	**448**
Turdiyeva R.	Ingliz, qoraqalpoq va o‘zbek tillaridagi maqollarda zoonimlarning lingvokognitiv tahlili (“bo‘ri” misolida)	**462**
Ataniyazova S.	O‘zbek va ingliz tillarida mayl, zamon va modallikning muloqot xulqidagi funksional-uslubiy imkoniyatlari	**466**
Sayfiyeva K.	O‘zbek va ingliz fitonim komponentli maqollarida inson	**472**

	konseptining kognitiv metaforik modellari	
Tillayeva O.	O‘zbek va turk maqollarida erkak konseptining semantik maydoni	**485**
Musurmankova Sh., **Abdullayeva D.**	“Ikki eshik orasi” romanidagi murojaat birliklarining lingvomadaniy xususiyatlari va tarjima muammolari	**495**
Abdullayeva M.	Ingliz va o‘zbek maqollarida nutqiy antonimiyaning lingvokognitiv xususiyatlari	**502**
VI. AXBOROT TEXNOLOGIYALARI VA RAQAMLI MUHITDA O‘ZBEK TILINING RIVOJI		
Abjalova M.	O‘zbek tili multikorpusida aksentologik korpus va uning ahamiyati	**513**
Elova D.	O‘zbek normativ-huquqiy matnlarini lingvo-mantiqiy annotatsiyalash mezonlari	**524**
Kasimova Z.	O‘zbek tili iboralar korpusini yaratishning lingvistik va kompyuter asoslari	**534**
Nurullayeva O.	Barqaror birikmalar resurslari va parallel korpus uchun baza tuzish mezonlari	**542**
Musulmonova K.	Lingvistik ekspertologiyada matn identifikatsiyasi bo’yicha ekspert xulosalarini shakllantirishning nazariy va amaliy asoslari	**550**

Umarova Sh.	Kollokatsiyalarni korpus asosida aniqlashning nazariy va metodologik asoslari	**556**
Akramdjanova M.	Parallel korpusning madaniyatlararo kommunikatsiyadagi o‘rni	**564**
Buronova R.	Raqamli muhitda o‘zbek tilidagi neologizmlarning shakllanishi	**570**
Shodmonaliyeva Y.	Sentiment tahlilda tasdiq-inkor emojlarining diskursiv va pragmatik funksiyalari	**576**
Rayimjonova M.	Rauf Parfi she’riyatining leksik-statistik xususiyatlari	**591**
VII. XALQARO TA’LIM DASTURLARI VA O‘ZBEK TILI: IMKONIYAT VA ISTIQBOLLAR		
Mirzəli Məleykə	Azərbaycanda özbək dilinin tədrisi: təcrübə və perspektivlər (bakı slavyan universitetinin timsalında)	**595**
Iskandarova G.	O‘zbek tilini ikkinchi til sifatida o‘rganishda so‘z ma’nolarini o‘zlashtirish	**603**
VIII. O‘ZBEK TILI VA DIPLOMATIYA: XALQARO MUNOSABATLARDA TILNING O‘RNI		
Темирова Б., **Темирова М.**	Кыргыз, өзбек тилдери жана алардын адабий-маданий байланыштардагы ролу	**610**

Nazarov Q.	O‘zbek diplomatik diskursida metaforalarning kommunikativ-pragmatik xususiyatlari	**620**
IX. ILMIY TADQIQOTLAR VA LINGVISTIKADA XALQARO HAMKORLIK MASALALARI		
Berdak Yusuf	O‘zbek tilining shakllanish jarayoni va eski o‘zbek tili terminlari	**626**
Qurbonova M.	Xarizmatik nutq haqidagi nazariy qarashlar talqini	**632**
Umurzoqova M.	Erkin A’zam asarlarida lisoniy shaxs tiplari	**640**
Mirzaali Malika	O‘zbek tılının mavsumıy marosımlar leksıkasıda turkıy areal mavqeyı	**646**
Məmmədova A.	Xarəzm Türkcəsində Və Müasir Özbək Dilində Qohumluq Terminlərində Cins Kateqoriyasinin İfadəsi	**661**
Tuxtasinova M.	L.Z.Budagov lug‘atidagi umumturkiy leksik fond: “tur.” pometali leksemalarning tarixiy-qiyosiy tahlili	**670**
Abdullayeva S.	So‘z yasalishını qıyosıy-tıpologık tadqıq etısh metodologıyası va tahlıl mezonları	**681**
Xasanova G.	Kinesikaning lingvistik tadqiqi: shakllanish tarixi va kommunikativ funksiyalari	**688**

Rajabov N.	O‘zbek tilida ng fonemasining talaffuzi, imlosi va tarixiy taraqqiyoti	**695**
Mirzayeva G.	O‘zbek tilida tovush o‘zgarishlarining neyrolingvistik asoslari	**699**
Arislanova M.	She’riy matnning konseptual tizimi va lingvokognitiv xususiyatlari (Erkin Vohidov ijodi misolida)	**706**
Muhammadiyeva M.	“Shum Bola” qissasidagi ba’zi polisemantik leksemalar tahlili	**717**
Abdullayev G‘.	Fitrat she’riyatidagi turkiy so‘zlarning emotsional-ekspressiv xususiyatlari	**722**
Tursunova S.	Ironiyada implikatura fenomeni va yashirin ma’no mexanizmlari	**726**
Turobova N.	Badiiy diskursda morfologik vositalarning pragmatik xususiyatlari	**737**
Utegenova O‘.	O‘zbek tilida tasviriy ifodalarning badiiy matnda qo‘llanilishi	**744**
Komilova G.	Tarixiy-badiiy matnlar korpuslarini yaratish zarurati va ularni semantik modellashtirish masalalari	**749**
Haydaraliyeva Sh., Mo‘minova M.	O‘zbek tili leksikasining taraqqiyot tamoyillari va semema tushunchasi	**759**

Axmedova M.	Diskurs tushunchasining lingvistik talqini: nazariy yondashuv va ilmiy qarashlar	**768**
Komilova Sh.	Lingvokultrologiyada evfemizm va milliy mentalitet: ayollar nutqi misolida nazariy talqinlar	**774**
Suyunova D.	“Boburnoma” dagi leksik qatlamlarning “Boburiynoma”da badiiy qayta faollashuvi: leksik-semantik va funksional-uslubiy tahlil	**780**
Maqsudaliyeva Y.	Lingvistik ekspertiza va lingvokriminalistik tahlil: nazariya va amaliyot	**786**
Abdurasulova D.	O‘zbek qizlari nutqidagi neonim va slenglarning pragmalingvistik tadqiqi	**792**
Majidova M.	Tibbiy soha rahbarlari kinesik nutqining lingvosomatik tadqiqi	**797**
Abdullayeva I.	Gender qadriyatlarning aksiolingvistik tahlili	**802**
X. O‘ZBEK TILINING OMMAVIY AXBOROT VOSITALARI VA MEDIA MAKONIDAGI O‘RNI		
Saydaliyeva M.	Kinodiskurs multimediali muloqot tizimi sifatida	**809**
Otaxonova S.	Mediamatnlarda antroponimlarning pragmatik imkoniyatlari	**813**